

ISLOM OLAMINING MASHHUR MUHADDISI

**F.A.Turakulova**

*Qo`qon davlat pedagogika instituti katta o`qituvchisi*

**G.Axmadaliyeva**

*Qo`qon davlat pedagogika instituti 403-gurux (sirtqi bo`lim) talabasi*

**Matnazarova Farangiz**

*Qo`qon davlat pedagogika instituti 202-gurux talabasi*

**Annotatsiya:** *maqolada Hadis ilmi borasida yaratilgan oltita mashhur sahih to`plam va bu borada beminnat xizmat qilgan muhaddis Imom Nasoiy to`g`risidagi ma`lumotlar aks ettirilgan*

**Kalit so`zlar:** *hadis ilmi, sahih, an-Nasoiy, muhaddis, tafsir, qiroat*

Hadis ilmi borasida oltita mashhur sahih to`plam mavjud bo`lib, ular ilm ahli orasida mashhur va katta ahamiyatga ega. Imom Nasoiy to`plagan hadislar ana shu olti sahih to`plamning biri sanaladi. Ulamolar uni uchinchi muhaddis sifatida e`tirof etadi.

Ahmad ibn Sufyon an-Nasoiy Naso (Niso) shahrida tavallud topib, to vafot etguniga qadar o`z umrini hadislarini to`plash va tasnif qilishga bag`ishlagan [1]. U ona yurtida Qur`oni karimni yod olib, kengroq ilmu ma`rifat hosil qilish niyatida xorijiy mamlakatlarga safarga chiqadi. 15 yoshli muhaddis Hijoz, Iroq, Shom, Misr va boshqa mamlakatlarga borib diniy fanlarni puxta o`zlashtiradi. U Misrning "Zuqoqu-l-qanodil" mahallasida uzoq vaqt yashab, so`ngra Damashqqa boradi. Damashqda umaviylarga yon bosmagani sababli tazyiq ostida og`ir holatga tushadi. Bir rivoyatga ko`ra, Makkaga yetib borib, o`sha yerda, ikkinchi rivoyatga ko`ra, Baytu-l-Makdis (Quddus)da vafot etgan.[2]

Ahmad ibn Sufyon an-Nasoiyning to`liq ismi Abu Abdurahmon Ahmad ibn Shuayb ibn Ali ibn Sinon ibn Bahr Nasoiy bo`lib, "O`z asrining imomi", "Qozi" va "Hofiz" unvonlariga ega bo`lgan.

Imom Nasoiy Shom va Misrga ham safar qilgan. Hishom ibn Ammor, Iso ibn Zug`ba, Muhammad ibn Nasr Marvaziy, Is`hoq ibn Muso Ansoriy, Ibrohim ibn Sa`d Javhariy, Ibrohim ibn Ya`qub Javzajoniy, Ahmad ibn Bakkor, Hasan ibn Muhammad ibn Za`faroniy, Amr ibn Zurora, Abu Yazid Jurmiy, Yunus ibn Abdula`lo, Homid ibn Mas`ada, Ali ibn Hishrom, Muhammad ibn Abdula`lo, Horis ibn Miskin, Hannod ibn Sufiy, Muhammad ibn Bashshor, Muhammad ibn G`iyxon, Abu Dovud Sulaymon ibn Ash`as Sijistoniy kabi allomalardan ta`lim olgan. Shuningdek, Xuroson, Hijoz, Iroq va Arabiston yarimorolining hadis hofizlaridan ham hadis tinglab, ularni saralab jamlagan, natijada "iyqon ilmi" (hadislarning ishonchliligini saralash ilmi), "uluvvul isnod" (hadis roviylari isnodining bir-biriga

bog'lanishi, sanadlar salomatligini aniqlash) kabi ilmlarda mashhur muhaddis darajasiga yetgan. Imom Nasoiydan hadis rivoyat qilgan Abdulloh ibn Ahmad ibn Hanbal [3] va Ibn Hallikonning ta'kidlashicha, uning otasi mashhur faqih bo'lgan. Ahmad ibn Hanbal va Ibn Xajar Asqaloniyning bildirishicha, Imom Buxoriy ham uning ustozlaridan hisoblanadi [4].

Nasoiy tafsir, hadis, qiroat, ilmi jadal (bahs-munozara ilmi), mustalahul hadis (hadis ilmi atamalari), fiqh, nahv, usul, bayon, tarix, adabiyot, tabobat va boshqa sohalarga tegishli besh yuzdan ortiq asar yozgan [5]. Ayniqsa "Sunan" asari bilan hadis ilmi rivojiga juda katta hissa qo'shgan. Ulamolar "Sunan"da ikki buyuk muhaddis Imom Buxoriy va Imom Muslimning yo'llari jam qilinganini ta'kidlaydi. Asarda mavzularni boblarga ajratish va tartiblashda Imom Buxoriy, hadislarni rivoyat qilishda "haddasana" ("bizga aytishlaricha"), "haddasaniy" ("menga aytishlaricha"), "axbarana" ("bizga xabar berishlaricha"), "axbaraniy" ("menga xabar berishlaricha"), "quria alayhi va ana asma" ("unga o'qildi va men eshitdim") kabi lafzlarda Imom Muslim uslubi qo'llangan. Muallif hadislarning sanad yoki roviylarida illat bo'lsa, ularni ko'rsatib ketgan.

"As-sunanu-l-kubro" to'plami Islom olami va hadis ilmining mashhur muhaddisi Ahmad ibn Sufyon an-Nasoiyning shoh asari hisoblanadi. Bundan tashqari, alloma "As-sunanu-s-sug'ro" yoki "Al-mujtabo", "Al-xasois", "Fazoilu-s-sahoba", "Al-manosik" va boshqa kitoblarni yozib qoldirgan.

Islom olami va hadis ilmining mashhur muhaddisi Ahmad ibn Sufyon an-Nasoiy xalq orasida "al-Marvaziy" deb ham yuritiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Imom Nasoiy hadis ilmi rivojlangan davrda yashab ijod etgan shaxs sifatida bu ilmga katta hissa qo'shgan muhaddislardan hisoblanadi. O'sha zamonlarda ko'plab to'qima hadislardan sahihlarini ajratib olish va to'plam holiga keltirish o'ta mushkul va sharafli ish bo'lgan. Imom Nasoiy hadis yig'ish maqsadida ko'plab yurtlarga borib, olti sahih to'plamdan birini yozishga muvaffaq bo'lgan. Islom olamida mashhur o'nlab shogirdlarni tarbiyalagan. Imom Nasoiy kabi buyuk allomalarning hayot yo'li, qoldirgan bebaho merosini o'rganish, kun sayin muammo bo'lib borayotgan diniy bahs-munozaralarning ijobiy yechimida katta ahamiyat kasb etadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Z. Munavvarov va boshqalar. *Ренессанс олимлари қомуси (o'zbekcha, inglizcha va arabcha)*, 2021-yil — 53 bet. ISBN 978-9943-7557-7-2.
2. O'rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi. – Samarqand. Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2016. – B. 473.
3. Sunanun Nasoiy. B.672. Dorus salom. Ar-Riyod. 1999.
4. Sunanun Nasoiy. Muqaddima. Dorus salom. Ar-Riyod. 1999
5. Sunanun Nasoiy. Jaloliddin Suyutiy sharhi. – Bayrut. 1995.
6. .Imom Nasoiy. "Sunanun Nasoiy" muqqaddimasi. Muhaqqiq Shayx Solih ibn Ablulaziz. Ar-Riyod. Dorus salom. 1999.

